


## QASHQADARYO VILOYATIINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil 1-yanvar holatiga)


Viloyat bo'yicha 2020-yilning 1-yanvar holatiga chakana savdo tovar aylanmasi **10 639,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan **5,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **345,7** mlrd.so'mni (2018-yilning shu davriga nisbatan **54,5 %** ga kamayish kuzatildi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10 294,0** mlrd.so'mni (o'sish sur'ati, **110,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **765,6** mlrd.so'mni (2018-yilga nisbatan **103,9 %**) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2018-yilga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (**112,0 %**), Kasbi (**110,4 %**), Qamashi (**110,4 %**), Chiroqchi (**109,2 %**), Nishon (**108,8 %**) va Yakkabog' (**107,4 %**) tumanlarida qayd etildi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2018-yilga nisbatan kamayish kuzatilib **44,5** % ni va **345,7** mlrd.so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,2** % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 294,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan **10,7** % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,8** % ga teng.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Hududlar kesimida chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi, %**



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari  
 Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari subyektlarining ulushi bo'yicha Kitob (**99,99 %**), Koson (**99,95 %**), Qamashi (**99,90 %**) va Mirishkor (**99,89 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumanida (**17,83 %**), Qarshi shahrida (**9,15 %**) va Muborak (**5,16 %**) tumanlarida kuzatilgan.

**Hududlar kesimida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar (mlrd. so'm)</b>	<b>2018-yilga nisbatan, % da</b>	<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so'm)</b>	<b>2018-yilga nisbatan, % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>345,7</b>	<b>45,5</b>	<b>10 294,0</b>	<b>110,7</b>
<b>G'uzor</b>	4,3	104,1	378,9	104,7
<b>Dehqonobod</b>	0,9	11,2	536,2	107,8
<b>Qamashi</b>	0,9	10,2	932,3	111,5
<b>Qarshi</b>	1,6	78,6	375,6	103,1
<b>Koson</b>	0,5	5,0	980,5	103,6
<b>Kitob</b>	0,1	0,6	670,6	107,3
<b>Mirishkor</b>	0,5	14,8	491,3	112,8
<b>Muborak</b>	15,5	89,1	285,1	106,0
<b>Nishon</b>	1,1	83,0	451,9	108,8
<b>Kasbi</b>	1,5	20,5	451,4	112,0
<b>Chiroqchi</b>	2,3	107,5	924,5	109,2
<b>Shahrisabz</b>	67,8	145,0	312,6	98,3
<b>Yakkabog'</b>	11	4,2 m.	594,7	105,9
<b>Qarshi sh.</b>	234,3	37,5	2 325,2	123,9
<b>Shahrisabz sh.</b>	3,4	30,1	583,2	106,9

**Hududlar kesimida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



2020-yil 1-yanvar holatida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga **3 277,2** ming so'mni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan **103,6 %** ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi (**9 378,3** ming so'm), Shahrisabz (**4 244,6** ming so'm) shaharlari va Mirishkor (**4 168,0** ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Shahrisabz (**1 728,6** ming so'm), Qarshi (**1 542,2** ming so'm) va G'uzor (**1 903,6** ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so'm	2018-yilga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 277,2</b>	<b>103,6</b>
<b>G'uzor</b>	1 903,6	102,7
<b>Dehqonobod</b>	3 696,7	104,0
<b>Qamashi</b>	3 485,0	108,1
<b>Qarshi</b>	1 542,2	100,7
<b>Koson</b>	3 486,1	100,5
<b>Kitob</b>	2 564,6	103,8
<b>Mirishkor</b>	4 168,0	109,8
<b>Muborak</b>	3 508,2	102,8
<b>Nishon</b>	3 011,8	106,2
<b>Kasbi</b>	2 336,9	108,1
<b>Chiroqchi</b>	2 288,6	106,4
<b>Shahrisabz</b>	1 728,6	102,5
<b>Yakkabog'</b>	2 324,2	105,1
<b>Qarshi sh.</b>	9 378,3	100,9
<b>Shahrisabz sh.</b>	4 244,6	103,5

Jumladan, 2020-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **250,6** mlrd. so'mga yetdi yoki 2018-yilning mos davriga nisbatan **18,0 %** o'sishga erishildi.

## QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*(2020-yil 1-yanvar holatiga)*

2019-yil 1-yanvar holatiga viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 746,6** mlrd.so'mni tashkil qildi va 2018-yilga nisbatan **5,4** % ga kamayish kuzatildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yakunlariga ko'ra, **1 812,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilga nisbatan **17,9** % ga o'sdi. Ushbu sektoring umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa **66,0** % ni tashkil qilmoqda.

### **Hududlar kesimida yirik va kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



Yirik korxonalar  
 Kichik biznes subyektlari

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi **34,0** % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**


	<b>Jami (mlrd. so'm)</b>	<b>2018-yilga nisbatan, % da</b>	<b>Yirik korxonalar (mlrd. so'm)</b>	<b>2018-yilga nisbatan, % da</b>	<b>Kichik biznes subyektlari (mlrd. so'm)</b>	<b>2018- yilga nisbatan, % da</b>
Qashqadaryo viloyati	<b>2 746,7</b>	<b>94,6</b>	<b>934,2</b>	<b>68,4</b>	<b>1 812,5</b>	<b>117,9</b>
G'uzor	46,6	104,1	0,6	106,2	46,0	104,1
Dehqonobod	7,1	149,4	-	-	7,1	151,1
Qamashi	59,6	59,1	28,5	275,1 m.	31,1	30,9
Qarshi	137,7	150,0	32,8	652,3 m.	104,9	114,3
Koson	91,9	99,0	-	-	91,9	99,0
Kitob	277,2	192,8	-	14,7	277,2	192,8
Mirishkor	77,3	9,0 m.	74,1	-	3,2	37,2
Muborak	72,1	2,5 m.	53,2	2,6 m.	18,9	2,1 m.
Nishon	72,6	3,1 m.	50,6	175,4 m.	22,0	94,8
Kasbi	57,5	3,6 m.	37,8	43,7 m.	19,7	124,3
Chiroqchi	59,4	117,1	-	-	59,4	117,3
Shahrisabz	47,2	2,3 m.	0,3	65,0	46,9	2,4 m.
Yakkabog'	48,9	2,2 m.	0,3	2,7 m.	48,6	2,2 m.
Qarshi sh.	<b>1 539,0</b>	<b>71,9</b>	<b>654,7</b>	<b>48,9</b>	<b>884,3</b>	<b>110,6</b>
Shahrisabz sh.	152,6	132,7	1,3	33,4	151,3	136,1

2020-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha **2 746,7** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2018-yilga nisbatan **94,6** % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi (**1 539,0** mld. so'm), Shahrisabz (**152,6** mld. so'm) shaharlari va Kitob (**277,2** mld. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Dehqonobod (**7,1** mld. so'm), G'uzor (**46,6** mld. so'm) va Shahrisabz (**47,2** mld. so'm) tumanlarida qayd etilgan.

### **Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining 2018-yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %**



Ulgurji tovar aylanmasida 2018-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (**9,0** m.), Kasbi (**3,6** m.) va Nishon (**3,1** m. %) tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida 2018-yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari esa Qamashi (**59,1** %), Koson (**99,0** %) tumanlarida va Qarshi (**71,9** %) shahrida qayd etildi.